



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 6

## BOLALAR ADABIYOTIDA QO'LLANILGAN GIDRONIMLAR

**Xanmuratova Sayyora Xalmuxammet qizi**

*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI*

*O'zbek tili va adabiyoti ta'lif yo'nalishi talabasi*

Adabiyotning so'z san'ati ekanligi haqidagi haqiqat juda qadim zamonlardan beri takrorlanib kelinadi. Demakki, adabiyotning bosh unsuri so'z, umuman, tildir. Adabiy asarning san'at darajasiga ko'tarila olishi uning lisoniy tarkibi va asar muallifining badiiy ifoda balog'atiga bog'liq ekanligi shubhasiz. Shunday ekan, har qanday adabiy asarning mohiyatini xolis baholamoq uchun, eng avvalo, uning lisoniy tarkibining o'ziga xosligi tahlil etilmog'i lozim.

Bolalar adabiyoti so'z san'ati va tarbiya vositasidir. Kichkintoylar uchun yoziladigan har qanday badiiy asar ularning yosh xususiyatlariga, saviyalariga mos, yosh kitobxonlar qalbida o'y-fikrlar uyqotadigan, yorqin obrazlarga boy, yuksak g'oyalarga, ulkan va porloq ishlarga ilhomlantiradigan bo'lishi zarur. Eng muhim mavzular tushunarli, sodda va qiziqarli tilda ifodalanishi kerak.

Bolalar adabiyoti yoshlarni imon-e'tiqodli kishilar sifatida va vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashda qudratli quroldir.

Faqat chinakkam badiiy asarlarga bolalarga kuchli ta'sir ko'rsatib, ana shu yuksak talablarga javob bera oladi. Shu sababli bunday kitoblar pedagogik nuqtai nazardan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Bolalar kitobi bu vazifani bajarishda badiiy tilga suyanadi. Adabiy asarning tili uning g'oyaviy mazmunini aniq va ifodali ochib berish vositasidir. Yaxshi, aniq, ravon, obrazli, boy til bilan yozilgan asar yozuvchining maqsad va fikrlarini kitobxonlarga tez va oson etkazadi.

Bolalar yozuvchisi sodda, ravon, qiziqarli va mazmundor qilib yoza bilishi kerak. Buning uchun esa u xalq tilini puxta bilmog'i lozim.

Ravon til bilan yozilgan badiiy asarlar kitobxonning nutqiga ham katta ta'sir ko'rsatadi, so'z boyligini oshiradi.

Bolalar yozuvchilarining eng yaxshi kitoblari yosh avlodni hayotga to'g'ri munosabatda bo'lishga o'rgatadi, ona-diyorimizga, mehnatga muhabbat, zamonamizga sadoqat ruhida tarbiyalaydi, ularni yurtimizning munosib farzandlari bo'lishga chaqiradi. Kitob bolaning dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi, xarakterini tarbiyalaydi. Ilm-fanga muhabbatni oshiradi. Kitob xalqimizning o'tmishi, ilg'or madaniyatimiz, fan va texnikamiz yutuqlari bilan tanishtiradi, faxr-iftixor tuyg'ularini o'stiradi.



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 6

Bugungi kunda qudratli quroq bo'lgan adabiyotdan keng foydalanmay turib, yangi jamiyat quruvchisini har tomonlama etuk inson qilib tarbiyalash mumkin emas.

O'zbek bolalar adabiyotining shakllanishi va taraqqiyotida Abdulla Avloniy, Hamza, Elbek, G'.G'ulom, Oybek, H.Olimjon, G'ayratiy, Zafar Diyor, Po'lat Mo'min, Quddus Muhammadiy, Yoqubjon Shukurov, Qudrat Hikmat, Asqad Muxtor, Xudoyberdi To'xtaboev, Latif Maxmudov, Tursunboy Adashboev, Anvar Obidjon va Hamza Imomberdiyev kabi adiblarning hissalari kattadir. Jamiyatimiz kelajagi bo'lmish bolalarning bilimli, odobli, Vatanga sadoqatli, ota-onal oldida burchdor, o'z davrining faol fuqarosi bo'lib ulg'ayishini ta'minlashda bolalar adabiyotining roli beqiyosdir.

Hozirgi zamon o'zbek bolalar adabiyotida sarguzasht va fantastika janrlarining rivojlanishiga katta hissa qo'shib kelayotgan talantli adiblardan biri Xudoyberdi To'xtaboevdir.

Talantli bolalar adibi Xudoyoberdi To'xtaboevning "Sir ochildi", "Aka-uka", "Omonboy bilan Davronboyning qishloqqa gaz olib kelganliklari haqida jippi qissa", "Besh bolali yigitcha", "SHirin qovunlar mamlakatida yoki sehrgarlar jangi", "Mungli ko'zlar" kabi yirik asarlarining yuzaga kelishi o'zbek bolalar adabiyotining katta yutug'i hisoblanadi.

Okean, dengiz, daryo, ko'l, muzlik, buloqlar nomlari gidronimlar hisoblanadi. Gidronimlar ham suvning xususiyatlariga ko'ra turlicha bo'ladi. Daryo, ko'l, buloq va quduqlar suvining rangi, sho'rligi, toza (tiniq)ligi, chuqurligi va boshqa xususiyatlariga qarab har xil. Yer osti suvlaridan, sizot suvlardan hosil bo'lgan daryolar Qorasuv, Qoradaryo deb, tog`lardagi qor va muzlardan suv oluvchi daryolar ko`pincha Oqdaryo deb, suvi tiniq, toza bo`lsa Ko`ksuv deb, loyqa suvli daryolar Sarisuv, Xuanxe (Sariq daryo) deb nom olgan. Tiniq va toza suvli ko'llar Oynako'l, Ko`kko'l, loyqa suvli bo`lsa Ayronko'l, sho'r bo`lsa Sho`rko'l, Achchiqko'l, Achchiko'l deb nomlanadi.

Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asaridagi gidronimlarni aniqlashga harakat qildik. Asarda quyidagi gidronimlarni uchratishimiz mumkin:

*... ular tezoqar tog' daryolaridan quloch otib suzib o'tishgan, dengizlarda sovuq bo'ronlarda qolishgan<sup>1</sup>...*

*- Indoneziyada nechta orol borligini so'rasam, janobi sehrgarni xafa qilib qo'ymaymanmi?*

*- Xafa bo'laman, boshqasini so'rang.*

<sup>1</sup> To'xtaboyev X. Sariq devni minib. Toshkent: Yangi asr avlod, 2010, 52-bet.



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 6

- Dunyodagi eng baland *sharshara* qaysi mamlakatda joylashganligini so 'ramoqchi edim?

- Iy-e, amaki siz aytganlar hammasi rebus-ku. Menden geografiya to 'g 'risida so 'rang-da.

- Marhamat, boshqasini so 'rashim mumkin. Qani, aytinglar-chi, Atlantik okeanining eng chuqur joyi necha metr?

- O 'lchab ko 'rganim yo 'q<sup>2</sup>.

... Lagerning shundoq biqinidan o 'ynoqlab o 'tadigan soy bo 'yida o 'n besh chog 'li bola qumlarga dumalab, yelkasini ostobga toblab yotibdi.

*Meni shaharning Kattasoy tuman militsiyasi ixtiyoriga jo 'natishdi*<sup>3</sup>.

G'afur G'ulom bolalar uchun she'rlar yaratishni o 'zi uchun bir baxt deb bildi. U bolalarga bag'ishlab "Mukofot" (1940), "She'rlar" (1946), "Tongotar qo 'shig'i" (1949), "Bari seniki" (1953), "Bir g'uncha ochilguncha", "Shum bola", "Tirilgan murda" (1934), "Yodgor" (1935) kabi kitoblar nashr ettirdi. U bolalar uchun yozgan har bir asarida o 'zining ijodiy prinsipiga sodiq qolib, juda katta ma'suliyat bilan qalam tebratdi. Natijada shoirning har bir asarining mazmunidan kelib chiqadigan asosiy g'oya, poetik xulosa pedagogik nuqtai nazardan keng asoslangan bo 'ladi. Shoirning bolalarga bag'ishlab yozgan asarlarida ularning yosh xususiyatini, aql-idrokini, talab va ehtiyojini nazarda tutganligini ko 'ramiz. Uning "Avlodlar", "Bilib qo 'yki, seni Vatan kutadi", "Avval o 'qi", "Bari seniki", "Oltin medal", kabi she'rlari, "Tirilgan murda" hikoyasi , "Shum bola", "Yodgor" kabi qissalari yoshlar va o 'spirinlarga mos kelsa; "Yasha deyman o 'g 'lim", "Ahmad yomon bola emas-ku, ammo...", "Ikki yoshlik", "O 'rdak va Turg'un", "Kekkaymachoq Sobir", "Ola buzoq" singari she'rlari kichik maktab yoshidagi bolalarning qalbiga kirib boradi. Shoirning "Nortojining kurak tishi", "Oq terakmi, ko 'k terak", "Buni toping, qizlarim", "Chitti gul", "Bayram maktubi", "O 'ylashni o 'rganimiz", "Siz mening yoshligimsiz" she'rlari esa maktabgacha tarbiya yoshidagi kitobxonlarning diliga quvonch bag'ishlaydi.

**G'ofur G'ulomning "Shum bola" asarida qo 'llanilgan gidronimlar.**

1. Yer, axir, taroziga o 'xshagan narsa bo 'ladi, hamma bir tomonga yursa, yerbarkashday bir yoqqa og 'ib, hammamiz *Qurdumdaryoga* g 'arq bo 'lib ketamiz-ku, -dedi. (5-bet)

2. Kampirning o 'tovi *Zolariqning chap qirg 'og 'ida edi.* (27-bet)

<sup>2</sup> To 'xtaboyev X. Sariq devni minib. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017, 58-bet.

<sup>3</sup> To 'xtaboyev X. Sariq devning o 'limi. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017, 21-bet.



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 6

3. Yana yo'lga tushib yarim soatcha yurgach, *Oynabuloq* degan yerda bir tolning tagida, *chashma* labida zog'orani o'rtaga qo'yib, qovunlarni yorib nonushtaga o'tirdik. (35-bet)

4. Bu daryoning ismi *Kalas* deb atalar ekan. (71-bet)

**G'ofur G'ulomning "Yodgor" qissasida qo'llanilgan gidronimlar.**

1. Axir Tinch okeanidan tortib Qora dengizgacha, Shimoliy qutubdan tortib Afg'oniston chegarasigacha-hammasi bizning baxtili Vatanimiz. (65- bet)

2. Jimirlab oqib turgan *Amudaryoning* mayda to'lqinlarida oy nurining ermak bo'lganini ko'raman.

Bolalar adabiyotida asarlarning nomlanishida ham gidronimlardan unumli foydalanilgan. Jumladan, Sulton Jo'raning "Dengiz tagida", Tursunboy Adashboevning "Oqbura to'lqinlari", "Qoplonko'l", "Obshirsoyda", "Armonko'l" "Nur daryo", "Arslonbob sharsharasi" "Qoplonko'l", Hakim Nazirning "Yonar daryo", Farhod Musajonning "Buloq suvi" kabi daryo, kanal, soy, buloq, ariq singari suv havzalarining atoqli otlari asosida paydo bo'lgan ktematonimlar mavjud.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. To'xtaboyev X. Sariq devni minib. Toshkent: Yangi asr avlod, 2010, 52-bet.
2. Omonov, B. (2021). Problems And Consequences Of Water Deficiency In Central Asia. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(8).
3. Nurillaevich, O. B., Aralovna, O. G., Shavkatovich, N. K., Khurramovich, M. Y., & Aralovich, O. B. (2022). Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 984-989.
4. Aralovna, O. G., Nurillaevich, O. B., Ayonovna, A. S., & Manzarov, Y. K. (2023). ECOLOGICAL GLOBALIZATION AND ITS SOCIAL PLACE IN THE GLOBALIZATION SYSTEM OF PROCESSES. Journal of Survey in Fisheries Sciences, 10(1S), 5000-5006.
5. Omonov, B. (2015). The use of water resources in the center of environmental policy in the region. In The Fifth International Conference on History and Political Sciences (pp. 53-58).
6. Omonov, B. (2023). THE EXPRESSION OF GEOPOLITICAL KNOWLEDGE IN THE WORKS "THE CITY OF VIRTUOUS PEOPLE" AND "INDIA". Open Access Repository, 9(6), 16-20.
7. Nurillaevich, O. B. (2021, February). THE IMPORTANCE OF RELIGIOUS VALUES IN THE FORMATION OF A PERSONAL ECOLOGY CULTURE. In Archive of Conferences (Vol. 15, No. 1, pp. 264-267).
8. Omonov, B. (2016). IS ARAL SEA OR LAKE?(SOME THOUGHTS ABOUT THE REASONS THAT TURNED THE ARAL SEA INTO THE LAKE, MORE



# THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 6

- PRECISELY INTO THE DESERT" ARALKUM"). Theoretical & Applied Science, (3), 63-67.
- 9. Omonov, B. N., Ochilova, G. Z. A., & Azamova, S. A. (2023). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN. World of Scientific news in Science, 1(3), 15-28.
  - 10. Aralovna, O. G., Nurillaevich, O. B., Shavkatovich, N. K., Khurramovich, M. Y., & Aralovich, O. B. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System.
  - 11. Norov, I., Yo'ldoshev, J., & Yo'ldoshev, S. (2023). ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA DARS TASHKIL QILISH. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(4), 40-47.
  - 12. Oglu, I. N. K., & Ogli, F. K. I. (2021). Level of study of ono mastic ethnones. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(6), 487-493.
  - 13. Norov, I., & Javlon, Y. (2021). ANALYSIS OF" STARRY NIGHTS. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2(02), 1-3.